



*Lutfillo AXATOV,*  
Chirchiq davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi  
E-mail: [l\\_axatov@cspi.uz](mailto:l_axatov@cspi.uz)  
(<https://orcid.org/my-orcid?orcid=0000-0002-9804-6220>)

Farg‘ona davlat universiteti dotsenti I.B.Siddiqov tahriri asosida

### MUTAFAKKIRLAR ILMIY MEROSI VA TASAVVUF

Аннотация

Tasavvufning rivojlanishi so‘fiylar axloqi va falsafiy mushohada irratsional yondashuvga asoslanadi. Falsafiy-axloqiy qarashlar mohiyati so‘fiylar hayoti va tasavvufiy qarashlar yordamida tahlil qilingan. Bunda axloqiy qarashlarni anglash uchun tasavvuf va so‘fiylarga ilmiy yondashuvlar misolida qaraldi.

**Kalit so‘zlar:** Tasavvuf (arab til: التَّصَوُّف), falsafa, ilm, tazkira, islom, axloq, idrok, mutafakkir.

### НАУЧНОЕ НАСЛЕДИЕ МЫСЛИТЕЛЕЙ И МИСТИЦИЗМА

Аннотация

Развитие суфизма основано на иррациональном подходе к философскому осмыслению суфийской этики. Сущность философско-этических взглядов анализировалась с помощью суфийского быта и мистических воззрений. Для понимания моральных воззрений был рассмотрен пример научных подходов к суфизму и суфиям.

**Ключевые слова:** Мистицизм-суфизм (араб. التصاوف), философия, наука, tazkira, ислам, этика, восприятие, мыслитель.

### SCIENTIFIC HERITAGE OF THINKERS AND MYSTICISM

Annotation

The development of Sufism is based on an irrational approach to the philosophical understanding of Sufi ethics. The essence of philosophical-ethical views was analyzed with the help of mystical life and mystical views. An example of Sufism and scientific approaches to Sufis was considered to understand ethical views.

**Key words:** Mysticism-Sufism (Arabic: التصاوف), philosophy, science, tazkira, Islam, ethics, perception, thinker.

**Kirish.** Tasavvuf va uning etikasi har bir davrga oid “qoida”lar asosida shakllantirilgan. Bu borada mutafakkirlar tomonidan qoldirilgan ilmiy merosni tahlil qilish va jamiyatga tadbiq qilishlik doimo tadqiqotchilar diqqat markazida bo‘lganidek, bugungi kunda ham o‘z pozitsiyasiga egadir. Tadqiqotning muhim ahamiyati ham aynan o‘tmishdagi tazkiranavislik va ulardagi avliyo zotlarning hayot tarzlari va bugungi kun nuqtai nazaridan olib (qiyosiy tahlil qilib) o‘rganishlik muhim ahamiyat kasb etadi. “Tazkirat ul – avliyo” va “Nasoim ul – muhabbat” kabi tazkirachilik namunalari uning yorqin ifodasidir.

Tasavvufga oid ma‘lumotlarni mutafakkirlarning tazkirachilik bobidagi kitoblaridan ham bilib olish mumkin. “Tazkira” arabcha “zikir” so‘zidan bo‘lib, esdalik daftari ma‘nosini anglatadi. Tasavvuf esa zikir asosida “qurilgan” ma‘lumotlarning hayotga (so‘fiylar zikri asosida) tadbiq qilish tarzida qaraladi. Tazkiraning mavzu doirasi keng bo‘lib, unda asotiriy va tarixiy voqealar, shaxslar, falsafiy qarash va nafis san‘at, tasavvuf (irfoniy) namoyadalar bo‘lgan avliyo (so‘fiy)lar haqida, adabiyot hamda she‘riyatga mansub shaxslar haqida so‘z yuritiladi. Shu jihatdan tazkiralar sohalarga bo‘linib, tarix, falsafa, san‘at va adabiyotga doir tazkiralar mavjud. Jumladan, “Tazkirai Muqimxoniy” (tarixga oid), “Tazkirat ul-avliyo” (falsafa ahli – mutasavvuf avliyo (shayx)larga oid), “Tazkirat ush-shuaro” (shoirilarga oid), “Tazkirai xattoton” (xattotlarga oid) va boshqalar.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlar.** Mavzuga oid manbalar tahlilida tazkirachilik, tasavvuf va so‘fiylikka oid qarashlar tadqiq qilinib, tasavvuf adabiyoti va tazkiranavislikka katta hissa qo‘shgan buyuk shoir, muafakkir va tazkiranavislardan Fariduddin Attorning (1145-1230) “Tazkirat ul-avliyo” (Avliyolar tazkiras), mavlono Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) “Nafahot ul-uns...” va hazrat Navoiyning (1441-1501) “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari berilgan. Asarning ikkinchi nomi: “Maqomot ul-avliyo” (Avliyo zotlar, ya‘ni solih zotlarning fazilatlar va karomatlar). Mazkur asarda yetmish ikki ba‘zi

ma‘lumotlarga ko‘ra avliyolar sonida farqlar mavjud. Masalan, “Forscha matn toshbosma nashrida 96 ism berilgan, asarning birinchi tahririda esa 69 ta avliyo ismi va faoliyati bayon etilgan” [1]. Asarda har bir avliyo zotning hol va hayoti, faoliyati, turli mavzu va masalalarga oid fikr-mulohazalari, qarashlari va hikmatli so‘zlari bayoni berilgan. “Tazkirat ul-avliyo”da shariat, tariqat, ma‘rifat, tavakkul, rizo, sabr, tahammul, shukr, taqvo (parhezkorlik) kabi tasavvufiy istilohlar (iboralar)larga turli mutafakkir va mashoyixlarning fikrlari, qarashlari aynan keltirilgan.

Ikkinchidan, asarda muallif o‘zining ilmiy-nazariy qarashlarini quvvatlash (asoslash) maqsadida Qur‘oni Karim oyatlari va hadisi sharifdan, mashoyixlarning hikmatli so‘zlari va hayotini hikoya, masal va naql (rivoyat)lar ko‘rinishidagi ma‘lumotlar bayonini keltirgan.

Tasavvufning nasriy bayoni sifatida “Tazkira”larni olish mumkin. Shuningdek, “Tazkiratul-avliyo”da mashoyixlar haqidagi fiqralar va ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning qisqa (muxtasar) yoki to‘liq (mufassal)ligiga qat‘iy me‘yorda amal qilinmagan masalan, eng buyuk tasavvuf namoyandalari (mashoyixlar) hayoti va ijodi imkon qadar batafsil yoritilgan bo‘lsa, boshqa ba‘zi mashoyixlar haqida umumiy tarzidagi ma‘lumotlar bayon etilgan.

Bu haqida Attorning “Tazkirat ul-avliyo” asarning kirish qismida " در وک ند طلب مشد بع قوم این کلمات شرح طلا بی اکر و "الذفن معرفتک تاب واسرار الاک شفک تاب والقلب شرح ک تاب [3; 130-133-B] "شود محیط معادی بدان و اید زب روزی ر الارب و so‘zlarning sharhini istasalar, “Sharh ul-qulub”, “Kashf ul-asror”, “Ma‘rifat un-nafs” kitoblaridan topishi mumkin ta‘kidlaydi.

“Tazkirat ul-avliyo”ning tazkirachilikdagi ahamiyati va xususiyatlaridan muhimi sifatida shuni ham ta‘kidlash kerakki, kuplab mutafakkirlar unga ergashib, o‘z asarlarini yaratish orqali bu an‘anani davom ettirganlar. Mavlono Jomiyning “Nafahot ul-uns”, Navoiyning “Nasoyim ul-muhabbat” asarlari buning yorqin misolidir. “Tazkirat ul-avliyo” fors tiliga yozilgan bulib,

keyinchalik usmonli turk tiliga, chig'atoy turkchasiga, uyg'ur tiliga va fransuz tiliga tarjima qilingan.

“Nasoyim ul-muhabbat”ning o'ziga xos xususiyatlari haqida so'z borar ekan, avvalo shuni aytish kerakki, asarning o'ziga xos xususiyatni aniqlash uchun mavjud asarni boshqa bir shu tipdagi asar bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Biz “Nasoyim ul-muhabbat”ni “Nafahot ul-uns” bilan qiyoslar ekanmiz, hazrat Navoiy tazkiraning kirish qismini tarjima qilmasdan o'zi yozganini ma'lum qiladi [5]. “Nasoyim ul-muhabbat” muqaddima (hamd, na't va asar yozilish sababi, “Bu toifa muqaddima tamhidi”, “Bu toifa a'molu af'oli va muomilatu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq”), 770 shayx zikrini o'z ichiga olgan asosiy qism va xotimadan iborat.

Hazrat Navoiy asarning yozilish sabablari haqida to'xtalar ekan, Jomiy va o'z tazkisasi o'rtasidagi farqlarni aytib o'tadi. Unga ko'ra:

- “Nafohatu-l-uns”da Fariddin Attorning “Tazkiratu-l-avliyo” asaridagi ba'zi avliyolar tushirib qoldirilgan, Navoiy esa ularni o'z tazkirasida zikr qilgan;

- Jomiyda hind va turk mashoyix (shayx)lariga keng o'rin ajratilmagan, lekin hazrat Navoiy mumkin qadar ularning barchasini o'z asarida aks ettiradi; Shuningdek, shoir “Nasoyim ul-muhabbat”da Abdurahmon Jomiy va uning zamondoshi bo'lgan valiy zotlar hayoti va faoliyatini ham yoritganini ma'lum qiladi.

Alisher Navoiy Rasululloh sallallohu alayhi va sallamdan so'ng payg'ambarlik eshigi berkitilgan bo'lsa-da, mo'minlar pok e'tiqod, taqvo bilan Allohga do'stlik – valiylik maqomiga erishishlari mumkin, chunki “Olimlar – payg'ambarlarning vorislaridir”, valiy zotlarning barchasi Alloh yo'lida sobit bo'lgan zotlardir, ular xalqni to'g'ri yo'lga boshlaydi, deb ta'kidlaydi [5].

Muqaddimaning “Bu toifa a'molu af'oli va muomilatu riyozotidin ba'zini zikr qilmoq” deb nomlangan qismi avliyolarning a'moli – amallari, af'oli – fe'l-atvori, muomilatu riyozati – muomalasi (xalq bilan munosabati) va Haq yo'lida chekadigan mashaqqatlarini yoritishga bag'ishlangan. Unda valiy zotlar bilan bog'liq luqma halolligi, shariatga amal qilish, imon kalimasini ruhga singdirish, besh vaqt namoz o'qish, zakot berish, ro'za tutish, haj qilish, odob, hilm, taqdirga rizo bo'lish va sabr qilish, sidq – rostgo'ylik, riyozat chekish kabi amallar keltirib o'tiladi. Bu fazilatli amallar oddiy odamlarnikidan farq qiladi. Asarda keltirilishicha, imon kalimasi – kalimai shahodatni hamma chin dildan aytishi mumkin, lekin valiyalar bu kalomni aytib, hushlarini ham yo'qotishlari mumkin.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mutafakkirlar ilmiy merosida tasavvufga oid (so'fiylik) ma'lumotlar keng yoritilgan bo'lib, tazkirachilik (avliyolar to'g'risidagi ma'lumotlar) manbalari aso'ida, islom aqidasi ko'ra, mo'jiza va karomat haqligi tadqiq qilinadi. Mo'jiza Payg'ambarlar tomonidan Allohning qudrati bilan amalga oshiriladigan va inson aqli yetmaydigan hodisalar bo'lsa, avliyolarning bu kabi ishlari karomat deyiladi. Bular umumiy xavoriqi odat – g'ayrioddiy, g'ayritabiiy ishlar, deb ataladi. Masalan, duolar ijobati, g'ayb sirlaridan ogoh bo'lish, inson ko'nglidagi o'yni anglash, suv va taomsiz ro'za tutish, bir lahzada dunyoning u chetidan bu chetiga borib qolish kabi oddiy inson aqli uchun g'ayritabiiy bo'lgan holatlar avliyolarga xos bo'lib, ularni ko'p oshkor qilmaslik valiyning yuksak maqomini bildiradi.

Shundan so'ng bevosita valiyolarning nomlari va tarjimai holi bilan bog'liq ma'lumotlar keltiriladi. Nomi zikr etilgan ilk valiy zot – avliyolar sultoni deb ulug'langan Uvays Qaraniydir. Uvays Qaraniyning Payg'ambarimiz sallallohu alayhi va sallamga g'oyibona oshiq bo'lganligi, uning kuchli va mustahkam muhabbati barcha islom ummati uchun ibrat hisoblanadi.

Asarda avliyolarga doir ma'lumotlar turli hajmda bo'lib, ba'zilar haqida bir jumla bilan kifoyalanilsa, ba'zi shayxlar ta'rifiga keng o'rin ajratiladi. Avliyolarning tarjimai holidagi ma'lumotlar muayyan mezonlarga ega emas: ayrim shayxlarning yashagan yillari, joylari, kasbi korlari va hokozalar bilan bog'liq ma'lumotlar batafsilroq keltirilsa, ba'zilarining faqat karomat yoki o'g'itlaridan parcha beriladi.

Tazkirada asosiy e'tibor valiy zotning amaliga qaratilgan. Har bir avliyo shariat hukmlarini so'zsiz va itoat bilan ado etib, Haq vasli talabida mol-dunyo tashvishidan, o'z borligidan mutlaqo voz kechadi. Bu dunyoga zarracha muhabbat qo'yish Haq ishqiga soya soladi, deb e'tiqod qilinadi. Har bir avliyo haqidagi ma'lumotlar tarkibida arab tilidagi baytlar, hikmatli fikrlar berib boriladi.

“Nasoyim ul-muhabbat” tarkibida tilga olingan avliyolar orasida islomdagi to'rt mazhab boshliqlari – imom A'zam, imom Molik, imom Shofe'iy, imom Ahmad ibn Xanbalidan tortib Muhammad G'azzoliy, Bahouddin Valad, o'g'li Jaloliddin Rumiy, Rumiyning o'g'li Sulton Valad kabi buyuk zotlar haqidagi turli qiziqarli, ibratli hikoyalarga duch kelamiz. Ushbu avliyolar haqidagi ma'lumotlar ilmiy asosga ega bo'lib, tasavvuf tarixini o'rganishda alohida ahamiyat kasb etadi (Masalan, Jaloliddin Rumiya bolaligida Fariddin Attor o'zining “Asrornoma” asarini hadya qilishi yoki Shamsiddin Tabriziy va Rumiy uchrashuvi bilan bog'liq ma'lumotlar).

Umuman olganda, hazrati Alisher Navoiyning avliyolar tarjimai holiga bag'ishlangan mazkur “Nasoyimu-l-muhabbat min shamoyimu-l-futuvvat” asari shoirning yetuk mutasavvif olim sifatidagi faoliyatini ko'rsatuvchi muhim manbadir [5].

Alisher Navoiyning mazkur diniy yo'nalishdagi asarlarini o'rganish orqali uning dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi bilan bog'liq muayyan ma'lumotlar olish bilan birgalikda, uning islom ilmlarining yetuk bilimdoni ekanligi to'g'risida tasavvuf hosil qilamiz. Bu ulug' shoirning o'z davri ijtimoiy hayotida tutgan o'rni nechog'lik muhim bo'lganligini belgilab beruvchi o'ziga xos omil ekanligi bilan ahamiyatli sanaladi. Jomiy asariga tanqidiy [ijodiy] qaragan Navoiy “burung'i zamondagi mashoyihdin barchasining zikrin qilmaydurlar va o'z muosirlarining ko'pini ham, o'zlarin ham bitmaydurlar” der ekan, asarda Jomiy, Lutfiy, Ashraf Muflisiy, Shayx San'on, Nosir Xisrav, Nasimiy va shular qatori Ahmad Yassaviy, Sulaymon Boqirg'oniy kabi “turk mashoyixlari” haqida ma'lumot beradi. Asarda Navoiy ilova qilgan shaxslarning faqatgina sufiyona qarashlarinigina yoritmasdan, adabiyot va jamiyatdagi o'rni belgilashga ham katta e'tibor bergan. “Nasoyim ul-muhabbat” Navoiyning didaktik qarashlari, tarjimonlik va tadqiqotchilik faoliyati hamda estetik qarashlarini o'rganish uchun muhimdir. “Nasoyim ul-muhabbat” ning ba'zi nusxalari Toshkent Davlat Sharqshunoslik Instituti Sharq qo'lyozmalari markazining fondida (inv. № 3415, 857, 3420, 8514, 1825) saqlanmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Muallif oldiga qo'ygan vazifalar: Jomiyning “Nafahot ul-uns” (arab va forsiynasab avliyolar tarixi) asaridan foydalangan holda turkiy kitobxon uchun turkiy tilda o'sha paytgacha bo'lmagan turkiycha “avliyolar tarixi”ni yozib berish;

- asarga turkiy avliyolarni ham qo'shish;
- zamonasining avliyolari, jumladan Jomiyning o'zini ham qo'shish;
- uncha muhim bilmagan avliyolarni va faktlarni qisqartirish;
- zikr etilgan shayxlarning ayrimlari haqida qo'shimcha ma'lumotlar berish.

Ma'lumki, Navoiy Jomiydan “Tazkirat ul-avliyo”dan so'ng shunday asarga ehtiyoj mavjudligini aytib, uning roziligini olgan [6]

Shuning uchun Navoiy muqaddimada yozadi: “Xotirg'a kechmishkim, agar sa'y qilsak, kitobni turk tiliga tarjima qila olg'aymuman va ul daqoyiq mushkulotin ravshanroq alfoz va ochuqroq ado bila o'tkara olg'aymuman? –deb muttammil (fikir qilmoq) erdim... Ta'rix 901 daki, ul kitobning yozilganidan 20 yil o'tub erdi, bu ulug' ishga ilik urdum va Hazrat Shayx Fariduddin Attor bitgan “Tazkirot ul-avliyo”dan ba'zi kibor mashoyixkim, “Nafaxot ul-uns” ga doxil bo'lmabtur erdi, har qaysini munosib mahalda doxil qildim va Hind mashoyixi sharhi ham oz mazkur erdi, mumkin bor tilab, topib ... ilhaq qildim va turk mashoyixi zikri ham ozroq erdi, oni dog'i ... uncha mumkin bor, tilab, topib, zikrlarin va ba'zi holatu so'zlarin o'z mahallida darj qildim. Va hazrat Maxdumi Nuranning oti va muosiru musohib mashoyix ... zikri dog'ikim, ul mo'tabarruk kitobda yo'q erdi, munda

qo'shdum va ul kitobda dag'i avliyulloh zikridin ba'zi so'zким, zamon ahlig'a ko'p muhoj un-ilayh ermas erdi itnob vahmidun tarkin tudum va bu tarjimadin o'skuttum..." [2].

Navoiy "Nasoyim" "Nafahot" tarjimasi ekanligi, lekin o'rni-o'rnida qisqartirilgan va to'ldirilganini e'tirof etadi. Aytish kerakki, asarda aynan tarjima qilingan va matnga erkin yondashib o'girilgan o'rnlari bor.

Birgina Jaloliddin Rumiyligi qirasi olinsa – aynan tarjima qilingan. Lekin ayrim qisqartmalar bor. Masalan, Mavlaviyidin so'rabdilar: Darvesh kay gunoh ko'nad? Magar darvesh beishtaho xo'radki, taomi beishtaho darveshro gunohi azim ast. (Ya'ni, Darvesh qachon gunoh qiladi? Agar darvesh beishtaha ovqat yesa, beishtaha taom yemoq darvesh uchun gunohi azimdir) [2].

Rumiyning as'hoblariga vasiyati qismida takror aytilgan shunchaki so'zlar ham tushirib qoldirilgan. Ular Rumiyligi siymosiga, uning qarashlariga futur yetkazmaydi, shu bois tushirib qoldirilgan.

Chingizxon voqealarini Najmiddin Kubro fiqrasida Jomiy kofirlar deydi, Navoiy "totorlar" deb beradi[7].

Najmiddin Roziy Xorazmdan chiqib, Runga keladi. Jaloliddin Rumiyligi Shayx Sadriddin Qunaviyligi bilan uchrashadi. Bir kuni Shom namozida undan imomlikka o'tishni iltimos qiladilar. Roziy har ikki rakatda 2 martadan "Fotiha" va 2 marta "Kofirun" surasini o'qiydi. Rumiyligi Sadriddin Qunaviyligi tiybat (hazil-mutoyiba) yuzasidan "birini Siz uchun, birini biz uchun o'qidilar", - deydi. "Nafahot"da bir marta Siz uchun, bir marta biz uchun o'qidi" deyiladi. Bunda hazil-mutoyiba yuzaga chiqmay qoladi. Navoiyligi tarjimasida xushtabiatli odamning nafosotli, nozik haziligiga urg'u berilgan. Navoiyligi "Nasoyim"ga turkiyligi oriflarni kiritar ekan, u o'z zimmasiga olgan turkiyligi til, unda yozilgan adabiyot, turkiyligi oriflar nomini tarixda qoldirish va shu kabi yuksak maqsadlariga rioya qilgan. Asariga Ahmad Yassaviyligi, Qutbiddin Haydar, Hakim ota (oti Sulaymon), Ismoil ota, Shayx Abdulhasan Ishqiy, Adib-Ahmad, Yusuf Shayx, Bobo Xokiy (ular 156) kabilarni, ayol orifalarga 1ta Bibicha Munajjimani kiritdi[8].

Asarning xotima qismi xuddi "Fotiha" dek yakunlagan bo'lib uni biz quyida ko'rishimiz mumkin bo'ladi: "Ilohi, bu avliyulloh asrorahumning sharif anfosi barakoti haqqi va bu kitob mutolaasig'a mashg'ul bo'lgan azizlar dimog'in mazkur bo'lgan abror muhabbati nasoyimidan muattar va bahramand qilg'aysen va bu kitob mumorasotig'a mash'uf bo'lg'on ahli tamayyuzlar ko'nglin mastur bo'lg'on axyor futuvvat shamoyimidan munavvar va arjumand etgaysen. Va alarning tufayli roqimning ham tiyra ro'zgorig'a safoye va hirmon zulmatidin qororg'on ko'zlariga hidoyat quyoshidin ziyoye nasib qilg'aysen. Va podshohi islomkim, iymon ahlig'a mujibi farog'atu

amniyat va zamon xaylig'a boisi rafohiyatu jam'iyatdurki, bular bo'lmasa, bu nav' nusxa tartibu tasnifi va bu tavr kutub jam'u ta'lifi mutaassir, balki muholu mutaazzirdur, sihatu umru davlatini muxallad va insofu adolatini muabbad tutqil va a'dosini maqhur va ahibbosini mansur qilg'il. Omin, yo Rabb al-olamin!" [2]. Tazkiraning yuqoridagi ko'tarinki ruhda tugallanishi haqiqatni abadiy g'alabasi bilan bog'liq desak adashmagan bo'lamiz.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, Attor xam, Jomiy va Navoiyligi xam ijodkor, ayni paytda sufiyligi ijodkordir. Ma'lumki, mashxur rus sharkshunosi E.E.Bertels "Navoiyligi va Attor" nomli makolasida, tugri ta'kidlanganidek, Alisher Navoiyligi "tarjimon shoir" emasligini isbotlagan edi [4].

Aslida Attorning "Tazkirat ul-avliyo" asarining uzi, Navoiyligi esa "Nasoyim ul-muxabbat" asarining uzi xar ikki ijodkorning so'fiyligi ekanligining, so'fiyligi kalb egasi bulganining yorikin ifodasi desak xato bulmaydi albatta. Zero, sufiylar xakida adabiy asar yozish sufiyligi ijodkorlar an'anasidir. Suzimizning asosi sifatida Sulamiyning "Tabaqt us-sufiya", Isfahoniyning "Hilliyat ul-avliyo" kabi mashxur tasavvufiyligi asarlarini misol kilib keltirish mumkin. Attor va Navoiyligi xam xuddi ana shunday sufiyligi ijodkorlardir. Zero, ular salaflar an'anasini davom ettirib, muvaffakiyatga erisha oldi. Ular sufiyligi bulmaganida, balki "Tazkirat ul-avliyo" va "Nasoyim ul-muxabbat" asarlarini yozmagan, yoza olmagan bular edi. Garchand, Attor av Navoiyligi salaflar an'anasini maxorat bilan davom ettirsa-da, lekin bu ikki zotning asarlari ba'zi jixatlari bilan salafarlari ijodidan farkli jixatlari bilan ajralib turadiki, bu Attor va Navoiyligi asarlarining boshka tazkiralardan farkli xususiyatlarini tashkil etadi.

Attor va Navoiyligi mashoyixlarning o'zlariga xos bulgan jixatlari, muborak siymolari ya'ni surati-yu siratini, kurinishlari, maktovga arzirli shaxsiyatlarini, insoniyligi fazilatlarini adabiy asarga xos bulgan shaklida bayon ztishgan. Shu bilan birga mualliflar tazkiraga xos jixatlar (zikk etilayogan mashoyixning shaxsiyatlarini, ilm-u ma'rifati, asarlari xakida ma'lumotlar) bilan mashoyixlar fikrasini mukammallashtirganini kurish mumkin.

Ushbu xulosadan kelib chiqib, shunday takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiqdir. Tasavvufga oid manbalarni tahlil qilib, darslarga oid ma'lumotlar sifatida o'quv qo'llanma va darsliklarga kiritish; Dinshunoslik faniga alohida "Tasavvuf etikasi" mavzusini shakllantirish; Tasavvufga oid ma'lumotlar yordamida tolerantlik metodologiyasini shakllantirish; Birlamchi manbalarni tarjima qilishni yo'lga quyish va manbashunoslikni keng ommalashtirish; Falsafiy-axloqiy qarashlar bilan tasavvufning mohiyatini komparativistik tadqiqini amalga oshirish.

#### ADABIYOTLAR

1. Fariduddin Attor "Tazkirat ul-avliyo" T., G'afur G'ulom nashriyot-matbaa ijodiy uyi 2017. – B. 18.
2. Alisher Navoiyligi "Nasoyim ul-muhabbat" Movarounnahr nashriyoti T., 2017
3. Akhatov, L. (2020). The problem of tolerance in oriental philosophy. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 6(7), 130-133.
4. Xalliyeva G. XX asr rus sharkshunosligida uzbek mumtoz adabiyoti tadkiki. Doktorlik diss... avtoreferati. – T., 2016. – B.20.
5. Ramazonov N. "Nasoyim"ning o'ziga xos xususiyatlariga doir / Navoiyligi ijod olami (maqolalar to'plami). – T.: Fan, 2001.B.25-26.
6. Islamov X. I. "Nasoyimul muhabbat" Alishera Navoiyligi i yego nauch-no-krticheskiy tekst: Diss. na soiskaniye kand filol. nauk . – T., 1990.S.57.
7. Habibullayev A. Tasavvuf falsafasi fanidan o'quv uslubiy majmua. T;2012.-B.15.
8. Bertels E.E. Sufizm i sufiyskaya literatura. –M., 1965.S.45.